

BUYUK QO'G'IRCHOQBOZLAR

Olimjonova Zarnigor

Najmiddinova Sarvara

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat Institutining Farg'ona mintaqaviy filiali

Qo'g'irchoq teatr aktyorligi 2-bosqich talabalari

***Annotatsiya:** Maqolada qo'g'irchoq teatrining haqiqiy durdonalari, afsonalari, buyuk shaxslar haqida so'z boradi. Qo'g'irchoq teatr tarixidagi uni ommaga qiziqarli tarzda ko'rsata olgan va shu sohada bor mehrini bergan shaxslar haqida, tarixda o'ziga yarasha iz qoldira olgan insonlar haqida so'z yuritiladi.*

***Kalit so'zlar:** Teatr, qo'g'irchoqboz, qo'g'irchoq, mohir, o'yinlar, yog'och, latta, o'zbek, raqqos, san'at, surnaychi, ba'zan, ip, tojik, san'atkor, komediya, xalq, zamon, syujetlar, pyesalar.*

Har sohaning tarixida o'chmas iz qoldirgan, aynan o'sha soha rivoji uchun borini berib harakat qilgan insonlar albatta mavjud. O'sha soha vakillari esa aynan o'z sohasining rivojlanishiga sababchi bo'lgan o'sha buyuk shaxslarga qancha tashakkur aytsalar shuncha kam hisoblanadi.

Quyida tilga olinadigan qo'g'irchoq teatrining asl durdonalari, buyuk shaxslar, buyuk qo'g'irchoqbozlar ham aynan qo'g'irchoq teatrining rivoji uchun borini bergan shaxslardir.

Toshpo'lat Doniyorov (1892 — Toshkent — 1953) — o'zbek xalq qo'g'irchoqbozi, yangi shakldagi davlat qo'g'irchoq teatri tashkilotchilaridan. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi (1944-yil). "Chodir xayol" qo'g'irchoq teatrining mohir ijrochisi bo'lgan.

Qadimgi qo'g'irchoq o'yinlari an'analaridan mohirona foydalangan va ularni targ'ib qilgan. 1928-yil Toshkentda ish boshlagan Rus yo'sh tomoshabinlar teatri

qoshida H. Abdullayev, M. Soliyev, A. Halimtoyevlardan iborat o'zbek qo'g'irchoqbozlari truppasini tashkil etgan. Sahnalashtirgan "Saltanat" (S. Abdulla) spektakli bilan Moskvada o'tkazilgan o'zbek san'ati dekadasi (1937-yil)da qatnashgan. Qo'g'irchoq konsertlarida ishtirok etgan.

Doniyorov yog'ochdan, keyinroq latta va qog'ozdan qahramonlar harakteriga mos qo'g'irchoqlar yasagan. Doniyorov Ishoqova, A. Saydaliyev, N. Zayniddinov, M. Rahmatullayevaning shogirdlaridir.

Abduzoyir sulolasi — samarqandlik qo'g'irchoqbozlar avlodi:

1) Abduzoyir (1786-1860) — mehtar, surnaychi va qo'g'irchoqboz;

2) Novvot bobo (1835-1904) — qo'g'irchoqboz, do-irachi, raqqos va sozanda. U qo'g'irchoq teatrining bir turi — „Chodir xayol“ ustasi, xalq san'ati an'analari asosida muvaqqat chodir teatri tashkil qilib, tomoshalar ko'rsatgan. Tomoshalarda boylar va chor amaldorlari hajv qilingan;

3) Quli bobo Novvotov (1882-1968) — qo'g'irchoqboz va surnaychi. 20-yillardan boshlab asosan, qo'lga kiyiladigan qo'g'irchoqlar tomoshasini ko'rsatgan.

Ko'pincha korfarmonlik qilgan: tomo-shani boshqargan, surnayda jo'r bo'lgan, qo'g'irchoqlar bilan savol-javob qilgan. Uning surnayda dam qaytarmay chalgan „Dutor irog'i“, „Soqiynoma“, „Siy-na-xiroj“ kabi kuylari kishiga zavq bag'ishlagan.

Zarif miskar (1800-yil, Buxoro) — atoqli qo'g'irchoqboz. Yoshligida raqqoslik qilgan, keyinroq surnaychi (mehtar) sifatida qo'g'irchoqbozlar bilan tomosha ko'rsatgan, ba'zan masharabozlik ham qilgan. taxminan 19-asrning o'rtalarida O'rdaga ishga taklif etilib, Buxoro amiri saroyidagi qo'g'irchoqbozlar hamda raqqoslar to'plariga rahbarlik qilgan. Ip bilan o'ynatiladigan "Chodir xayol" qo'g'irchoq teatri ustasi sifatida tanilgan.

Ayniqsa "Sarkardalar" tomoshasi katta muvaffaqiyat qozongan. Mashhur qo'g'irchoqboz Doniyor qo'g'irchoqboz ham Zarif Miskarning shogirdi.

Doniyor qo'g'irchoqboz (asli Shahsuvorov Doniyor, 1876—1962, Buxoro) — xalq qo'g'irchoq teatri ustasi. Tomoshani o'zbek va tojik tillarida ko'rsatgan. Bobosi Abdulla, otasi Shahsuvor san'atkor bo'lganlar. Doniyor qo'g'irchoqboz surnay chalishni otasidan va Ashir qora mehtardan o'rgangan.

Qo'g'irchoq o'ynatishni esa mashhur qo'g'irchoqboz Zarif miskarga shogird tushib o'zlashtirgan (ham "chodir jamol", ham "chodir xayol" teatrini o'rgangan). Zarif miskar boshchiligida Buxoroning Labi hovuzida, amirning shahardan tashqaridagi bog'ida ham tomoshalar ko'rsatgan.

Doniyor qo'g'irchoqboz 1910-yilda o'z to'pini tuzgan va Ko'rhoji, Kenja Jumayev kabi qo'g'irchoqbozlar bilan ishlagan. Asosan "chodir jamol" qo'g'irchoq teatrini rivojlantirgan. "Oftobxon va Moxtobxon" nomli yangi komediya yaratgan.

Jo'ra qayroq avlodi - g'ijduvonlik xalq qo'g'irchoqbozlari:

1) Jo'ra qayroq (1796—1898) — mashhur xalq qo'g'irchoqbozi, raqqos (qayroq bilan raqsga tushgan, laqabi shundan), surnaychi, qo'g'irchoqbozlar to'dasining raqbari;

2) Hamro (1818—1910) — "chodir jamol" xalq qo'g'irchoq teatrining taniqli ustasi, an'anaviy "Kachal Polvonning sarguzashtlari" xalq komediyasini yaratgan;

3) Narzullo (1908—62) — xalq qo'g'irchoqbozi. O'z to'pi bilan "Dangasa er va zarbdor xotin" komediyasini yaratgan;

4) Nasrullo Hamroyev (1936) — xalq qo'g'irchoqbozi. Xalq qo'g'irchoq teatrini hozirgi zamon talablari darajasida rivojlantirishga intiladi.

1966-yilda an'anaviy syujetlar asosida yozilgan "Kachal Polvon uylanadi" (M. Xalil), "Laqma laycha" (H. Rahmat, T. Mahramov), "Quyonboyning tug'ilgan kuni" (B. Omonov) va pyesalar sahnalashtirildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sahna ma'naviyati (SH. Rizayev)
2. Sahna nutqi (U. Boltaboyeva)
3. Qo'g'irchoq teatr tarixi (M. Qodirov, S. Qodirova)
4. Qo'g'irchoq boshqarish asoslari (D.D.Abdullayev, L.D.Usmanova)

5. Teatr tarixi
6. Aktyorlik Mahorati (R. O'tganov)

Foydalanilgan web-saytlar

1. Tafakkur.net
2. [Ziyouz.com sayti](http://Ziyouz.com)
3. [Qomus.info sayti](http://Qomus.info)
4. [Saviya.uz sayti](http://Saviya.uz)
5. [Shosh.uz sayti](http://Shosh.uz)